
Qo'sha qarish saodati

“Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz”

✍ Rishton tumanida “Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz” g'oya asosida Vatanimiz mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv, muloqotlar, bayram dasturlari bo'lib o'tmoqda.

✍ Bayram arafasida yoshi ulug' keksalar, nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, ularning ibrat maktabini keng targ'ib etish maqsadida ham xayrli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

✍ Ana shunday tadbirlardan biri “Qo'sha qarish saodati” mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar tuman hokimligi, tuman Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va Nuroniyar jamoatchilik kengashi hamda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan joylarda ko'tarinki kayfiyatda tashkillanmoqda.

✍ Ezgu loyiha doirasida tuman hokimi Sufhonjon Soliev, tuman prokurori Rustam Mamadaliev, tuman IIB boshlig'i Hojiakbar Toshpo'latov va tuman DSI boshlig'i Dilshod Rahimov hamrohligida tumanning “Oq-er” mahallasida istiqomat qiladigan ana shunday ibratli oila sohiblari – Mo'ydinjon ota va O'g'ilchaxon Solievlar xonadonida bo'ldi.

✍ 66 yildan buyon birgalikda umrguzaronlik qilib kelayotgan Mo'ydinjon ota hamda O'g'ilchaxon ona ibratli hayot yo'llari, farzandlar tarbiyasi bilan mahalla va tumanda hurmat-obro'ga ega.

✍ Qishloq xo'jaligi, chorvachilik va boshqa sohalarda uzoq yillar samarali mehnat qilgan, piri badavlat otaxon-onaxon bugun 7 nafar farzand, 25 nabira va 42 chevvara izzat-ikromida baxtli hayot kechirib, keksalik gashtini surmoqdalar.

✍ Yo'qlov davomida tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari o'rinbosari T.Abdurahmonov va boshqa rahbarlar xonadon sohiblariga ana shunday uzoq yillik ibratli faoliyati va turmushi uchun minnatdorchilik bildirib, tuman hokimligining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alarini topshirdi.

– Maqsadimiz, eng avvalo, siz aziz keksalarimizning ko'nglini olishdan iborat dedi, –tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari o'rinbosari T.Abdurahmonov. – Shuningdek, bu kabi uchrashuv va madaniy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Sizlarning qimmatli o'gitlaringiz, ibratli hayot yo'llaringiz yoshlar ong-shuurida qo'sha qarish saodati naqadar aziz tuyg'u ekani haqidagi tushunchalarni shakllantiradi.

✍ Otaxon va onaxon ham o'z xayotiy tajribalari, erishgan muvaffaqiyatlari, saodatli oila sirlari haqida barchaga so'zlab berishdi.

✍ Ulug' ayyom arafasida oilalar, keksalarni e'zozlash, ularning ibratli turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar mahallalarda davom etmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-20 13:10:08